

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

2019-yilning yanvar-mart oylarida Viloyatda 816 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 420 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1387 ta (12,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 11033 tani tashkil etgan.

**Ro'yxatdan o'tganlar
11855 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotganlar
11033 ta**

**Yangi tashkil etilganlar
816 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes
sub'ektlari soni 8977 ta bo'lib,
yil davomida 789 ta yangi tashkil
etildi.**

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi
117 ta korxonalar faoliyat
ko'rsatmoqda.**



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilinmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1463	1292	74
	Sanoat	1497	1412	171
	Qurilish	1132	1066	98
	Savdo	3172	2927	273
	Tashish va saqlash	604	561	19
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	722	668	109
	Axborot va aloqa	166	155	3
	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	133	130	3
	Boshqa turlari	2966	2822	66



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-aprel holatiga 11855 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 26,8 % savdo, 12,6 % sanoat, 9,5 % qurilish, 12,3 % Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 25,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3653 ta), Sirdaryo (1887 ta), Sayhunobod (960 ta) va Bayovut (912 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (273 ta), Sardoba (458 ta) hamda Oqoltin (488 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 11033 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1387 ta (12,6 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 26,5 % savdo, 12,8 % sanoat, 9,7 % qurilish, 11,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3442 ta), Sirdaryo (1738 ta), Sayhunobod (932 ta), Boyaut (874 ta) va Yangiyer shahri (804 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (248 ta), Sardoba (441 ta) hamda Xovos (543 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona
va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar
kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

01.04.2017 y.

- 9123 ta

01.04.2018 y.

- 9646 ta

01.04.2019 y.


- 11033 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar. (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-mart oylarida 816 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`satkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 106,1 % ga ko`pdir. Eng ko`p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Guliston shahri (197 ta), Sirdaryo (154 ta) va Boyovut (76 ta) tumanlari hissasiga to`gri keladi. Aksincha Shirin shahri (16 ta) hamda Xovos (43 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`satkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo`yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (273 ta), sanoat (171 ta), qurilish (98 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (109 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (3 ta), axborot va aloqa (3 ta) hamda tashish va saqlash (19 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.04.2017 y.		01.04.2018 y.		01.04.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	482	100,0	396	100,0	816	100,0
Savdo	120	24,9	106	26,8	273	33,5
Sanoat	88	18,3	65	16,4	171	21,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	118	24,5	76	19,2	74	9,1
Qurilish	41	8,5	45	11,4	98	12,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	38	7,9	26	6,6	109	13,4
Tashish va saqlash	32	6,6	11	2,8	19	2,3
Axborot va aloqa	6	1,2	4	1,0	3	0,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	0,4	4	1,0	3	0,4
Boshqa turlari	37	7,7	59	14,8	66	7,9

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar
kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

01.04.2017 y.

482

01.04.2018 y.

396

01.04.2019 y.


816



TIJORAT KORXONALARNI.

2019-yil 1-aprel holatiga 9018 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2781 ta, oilaviy korxonalar – 123 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5800 ta va boshqalar 314 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda *(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 117 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga yoki 41,0 % ga o'sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumani (50 ta yoki jamidagi ulushi 42,7 %), Guliston shahri (24 ta yoki 20,5 %) va Yangiyer shahri (13 ta yoki 11,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xovos tumani (1 ta yoki 0,8 %), Guliston tumani (1 ta yoki 0,8 %) va Shirin shahri (2 ta yoki 1,7 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 82 tani (70,1 %), savdoda 11 tani (9,4 %) hamda Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 8 tani (6,8 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 4 tani (3,4 %) boshqa tarmoqlarda 4 tani (3,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tani (0,9 %) tashkil qilgan. Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 10 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Qozog'iston Respublikasi – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi -2 ta hamda -3 tasi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, 2019-yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (6 ta), savdo (2 ta), qurilish (2 ta) hissasiga to'gri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2018-yil yanvar-mart		2019-yil yanvar-mart	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Jami	4	100,0	10	100,0
Sanoat	4	100,0	6	60,0
Savdo	-	-	2	20,0
Qurilish	-	-	2	20,0



Kichik korxona va mikrofirmalar soni.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-aprel holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 8977 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- aprel holatiga qaraganda 16,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2962 tasi (33,0 %) Guliston shahri, 1482 tasi (16,5 %) Sirdaryo, 763 tasi (8,5 %) Sayhunobod hamda 683 tasi (8,6 %) Yangiyer shahri hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8977 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2920 tasi (32,5 %) – savdo, 1393 tasi (15,5 %) - sanoat, 1061 tasi (11,8 %) - qurilish, 1274 tasi (14,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 666 tasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 559 tasi (6,2 %) - tashish va saqlash, 148 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 84 tasi (0,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 872 tasi (9,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'riniib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil yanvar-mart oylarida 789 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 118,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (186 ta), Sirdaryo (153 ta) va Mirzaobod (69 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (14 ta), Oqoltin (40 ta) hamda Xovos (43 ta) tumanlarda tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (273 ta), sanoatda (171 ta), qurilishda (98 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (74 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta), axborot va aloqada (3 ta) hamda tashish va saqlashda (19 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-aprel holatiga 131 tani tashkil etib, ulardan 123 tasi yoki 93,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 43,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 44,7 % yoki 55 tasi sanoat, 19,5 % yoki 24 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,6 % yoki 18 tasi savdo, 14,6 % yoki 18 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 4,2 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa Axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi Statistik registrlarni
yuritish bo'lumi Tel.:67-225-31-00